

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

О.Т.ЮЛДАШЕВ



**СУФУРТА ИШИ
КАФЕДРАСИ**



СУФУРТА ИШИ

Тошкент-2014

3-mavzu: BUYUK BRITANIYANING SUG‘URTA TIZIMI

REJA

1

- Buyuk Britaniya iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni va ahamiyati.

2

- Buyuk Britaniya sug‘urta kompaniyalari amalga oshiradigan asosiy sug‘urta turlari.

3

- Buyuk Britaniyada sug‘urta tizimini davlat tomonidan tartibga solinishi.

4

- Buyuk Britaniya bozorida sug‘urta brokerlarining asosiy vazifasi.

3.1. Buyuk Britaniya iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni va ahamiyati

Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, sug‘urta kompaniyalarining qariyb 30% aktivi yirik sanoat kompaniyalarining aksiyasiga to‘g‘ri keladi.

Buyuk Britaniyada aholi va korxonalarining vaqtincha bo‘sh mablag‘larini iqtisodiyotga jalb etishda sug‘urta kompaniyalari o‘ziga xos mavqega ega.

Buyuk Britaniyada sug‘urta kompaniyalarini “Moliyaviy vositachilar” yoki “yirik institutsional investor” sifatida baholashadi.

Sug‘urta kompaniyasi uzoq muddatli sug‘urta shartnomalarini tuzish yo‘li bilan aholidagi vaqtincha bo‘sh mablag‘larini sug‘urta fondiga jalb etadi.

Korxona va banklar bilan ham mol-mulk sug‘urtasi bo‘yicha shartnomalar tuzib, katta miqdorda sug‘urta fondini shakllantiradi. O‘z navbatida, sug‘urta kompaniyasi bu fondning mablag‘larini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltiradi.

Buyuk Britaniya to‘lov balansi strukturasini tahlil qiladigan bo‘lsak, valyuta tushumlarining 50 foizi sug‘urta badallari hisobiga to‘g‘ri kelganligini ko‘ramiz. Buyuk Britaniya sug‘urta kompaniyalari jahonning 43 ta mamlakatda sug‘urta operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Buyuk Britaniyada sug‘urta ishini faol rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir qilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

1

- Birinchidan, bu erda tadbirkorlikni erkin yuritish uchun Hukumat yoki qonunchilik tomonidan eng kam nazorat tizimi joriy qilingan. Bu holat, so‘zsiz Buyuk Britaniyada faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy sug‘urta kompaniyalari uchun ham tadbiq etiladi. Hozirgi paytda, Buyuk Britaniya sug‘urta bozorida xorijiy mamlakatlarning 150ga yaqin kompaniyalari sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirmoqda.

2

- Ikkinchidan, jahon miqyosida erishilayotgan tijorat bitimlarining anchagina qismi Angliya hissasiga to‘g‘ri keladi.

Buyuk Britaniyada, hamma uchun qulay bo‘lgan soliqqa tortish tizimi shakllangan. Amaldagi soliqqa tortish tizimi yirik miqdordagi zaxira jamg‘armalarini shakllantirishini va ularni investitsiya qilishni rag‘batlantiradi.

Buyuk Britaniya milliy sug‘urta kompaniyalari o‘zlarining chet mamlakatlardagi bo‘lim va filiallari orqali xalqaro sug‘urta bozorlarida ishtirok etmoqda.

sug‘urta kompaniyalari
yig‘gan sug‘urta
badallarining katta qismi,
ularning chet mamlakatlarda
olib borgan operatsiyalari
hisobidan shakllanadi.

Masalan, “Royyal Inshurens”
kompaniyasi sug‘urta
badallarining 68,4 foizi
tashqi manbalardan kelib
tushgan.

Keyingi yillarda Buyuk Britaniya sug‘urtalovchilari kattagina xajmdagi o‘z mablag‘larini ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni moliyalashtirishga yubormoqda.

Hozirgi paytda ko‘chmas mulkka investitsiya jami investitsiyalarning 15 foizini (uzoq muddatli sug‘urta shartnomalari bo‘yicha) tashkil etmoqda.

Ko‘chmas mulkka investitsiya qilishning ijobiy xususiyatlardan biri shundan iboratki, ko‘chmas mulk pulning qadrsizlanish jarayonidan ishonchli himoyalangan. Ammo, bu investitsiya ob’ektining ham bir qancha salbiy tomonlari mavjud. Masalan, amaliyotda ko‘chmas mulklarni qisqa muddatda foydali narxda sotish ancha mushkuldir.

Buyuk Britaniya sug‘urta kompaniyalari o‘zlarining vaqtincha bo‘sh mablag‘larini ipoteka kredit resursi sifatida ishlatishi yoxud bankka depozit sifatida saqlashi mumkin.

3.2. Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari amalga oshiradigan asosiy sug'urta turlari

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Buyuk Britaniyada 850ga yaqin sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirgi paytda, Buyuk Britaniya aviatsiya sug'urta bozorining asosini tashkil etadigan 426 ta kompaniya samolyotlarni sug'urta qilish, 433 ta kompaniya esa dengiz kemalarini sug'urta qilish bilan shug'ullanmoqda.


Buyuk Britaniya sug'urta bozori ikki qismga bo'lingan:



- Hayotni sug'urta qilish bozori;
- Umumiyligida sug'urta bozori.

Buyuk Britaniyada aholiga va boshqa potensial mijozlarga sug'urta xizmati ko'rsatish shu darajada rivojlanganki, bunda xar bir oila va fuqaroning daromadi va manfaati hisobga olinadi. Sug'urta badallari agentlar tomonidan yig'iladi va ularning soni 35000 ga yaqin.

YUqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, Buyuk Britaniya sug‘urtasining quyidagi turlari mavjud:



- **hayotni vaqtinchalik sug‘urta qilish.** Bu sug‘urta o‘lim hodisasiga tegishli muddatga sug‘urta qiladi. Ushbu sug‘urta turi bo‘yicha badal miqdori nisbatan kamdir. Masalan, Angliya fuqarosi bir yil muddatga 10000 funt sterlingga sug‘urta qilinsa, sug‘urta badali miqdori bir oyga 2 funt sterlingni tashkil etadi. Sug‘urta badalining miqdori sug‘urtalanuvchining yoshiga va sug‘urta muddatiga bog‘liq.
- - **boquvchisini yo‘qotish hodisasidan hayotni umrbod sug‘urta qilish.** Boquvchisini yo‘qotish hodisasidan oilaning daromadi sug‘urta qilinadi. Sug‘urtaluvchi dastlab katta miqdorda sug‘urta badali to‘laydi. Masalan, 35 yoshdagи sug‘urtalanuvchi 5000 funt sterling miqdorida 30 yil muddatga o‘z oilasiga daromadni kafolatlash uchun 330000 so‘mga sug‘urta qilinadi.
- - **umrbod hayotni sug‘urtasi.** Sug‘urta kompaniyasi, sug‘urtalanuvchi qilgan taqdirda, uning oilasiga yoki sug‘urta polisida ko‘rsatilgan shaxsga tegishli sug‘urta summasini to‘lash maburiyatini oladi. Sug‘urta badali sug‘urtalanuvchining butun hayoti davomida yoki keyingi 15-20 yil ichida to‘lanishi mumkin.

YUqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, Buyuk Britaniya sug‘urtasining quyidagi turlari mavjud:

4

- - **aralash sug‘urta.** Sug‘urtalanuvchi sug‘urta badalini har oyda yoki yilda bir marta to‘laydi. Sug‘urta summasi shartnoma muddati tugashi bilan to‘lanadi va unga tegishli murakkab foizlar vositasida hisoblangan foiz ham qo‘sib beriladi. Agar, sug‘urtalanuvchi vafot etgan taqdirda sug‘urta badali to‘liq to‘langanligi yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar sug‘urta summasi sug‘urtalanuvchining qonuniy merosxo‘riga to‘lanadi.

5

- - **renta sug‘urtasi (annuitetlar).** Sug‘urtalanuvchi sug‘urta badalini sug‘urta kompaniyasiga bir vaqt ni o‘zida to‘liq miqdorda yoki bir necha yillar davomida to‘lashi mumkin. Sug‘urtalanuvching o‘zi to‘lagan sug‘urta badali summasini butun umr davomida to‘lab boriladigan to‘lovlar bilan birga qaytarib olishi mumkin. Boshqacha so‘z bilan ifodalanganda, sug‘urtalanuvchi 60 yoshida o‘zi to‘lagan sug‘urta badallarini to‘liq qaytarib oladi va undan keyin unga muntazam ravishda daromad to‘lab boriladi. Masalan, agar fuqaro 65 yoshida 1000 funt sterling miqdorida sug‘urta badali to‘lagan bo‘lsa, u qolgan umri davomida har yili 118dan 140 funt sterlinggacha daromad oladi.

6

- - **sog‘liqni uzluksiz sug‘urta qilish.** Sug‘urtalanuvchi har xil kasalliklar yoki baxtsiz hodisa tufayli sog‘lig‘ini yo‘qotganda sug‘urta kompaniyasi qoplama to‘laydi. Sug‘urta badali summasi sug‘urta qoplamasiga nisbatan juda kam. Masalan, 25 yoshli sug‘urtalanuvchi har oyda 15 funt sterlingdan badal to‘lasa, unga sug‘urta hodisasi ro‘y bergen holatda, har yili 1000 funt sterlingdan sug‘urta qoplamasini to‘lanadi.

7

- **dengiz sug‘urtasi. Kemalar**, kemadagi yuklar dengiz falokati yoki avariya hodisalardan sug‘urta qilinadi.

8

- - **injenerlik sug‘urtasi**. qurilish-montaj risklarini sug‘urtasi, ekspluatatsiya jarayonidagi texnik qurilmalarini sug‘urtasi.

9

- - **ishlab chiqarish-xo‘jalik risklarini sug‘urtasi**. Korxonalarda ishlab chiqarishni to‘satdan to‘xtab qolishi, yollanma ishchilarning suiste’mol qilishi, xamkorlarning shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajara olmasligi oqibatida zarar ko‘rish riski sug‘urtalanadi.

10

- - **fuqarolik javobgarligini sug‘urtasi**. Sug‘urtalanuvchilarning uchinchi shaxs oldidagi mulkiy javobgarligini himoya qiladi. Masalan, tadbirkorlikni yollanma ishchilar oldidagi javobgarligini sug‘urtalash. Bunda yollanma ishchilarga sug‘urta hodisasi ro‘y bergen taqdirda sug‘urta qoplamasи to‘lanadi.

11

- - **ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati uchun ishlab chiqaruvchining javobgarligini sug‘urtalash**. Sug‘urtalanuvchining uchinchi shaxs oldidagi mulkiy javobgarligini himoya qiladi.

12

- - **kasbiy javobgarlikni sug‘urtalash**. Bir qator toifa xodimlarning (arxitektorlar, injenerlar, advokatlar, auditorlar, vrachlar, notariuslar va xokazolar) kasbiy majburiyatini sifatli keltirishi mumkin bo‘lgan zarari sug‘urta qilinadi.